

## ANALYSIS OF HISTORICAL GEOGRAPHICAL INFORMATION FOUND IN THE WORK OF "BOBURNOMA"

*O'zMU Tarix fakulteti Tarix yo 'nalishi  
2-bosqich talabasi Orzubek O'ralov*  
*e-mail: [orzubekurolov06@gmail.com](mailto:orzubekurolov06@gmail.com)*  
*tel: +99899-500-75-68*

**Annotation.** The article analyzes the geographical location, place-names, forests, rivers and other natural objects in "Boburnoma". Historical events and how they are covered by the author are also considered, as well as the importance of this information in the study of history and cultural heritage. Through the results of the research, it is aimed to create a broader idea about the historical-geographical aspects of the work and to create an opportunity to add it to modern scientific research.

**Key words:** Persian toponyms, toponyms, orogenic toponyms, hydrotoponyms, anthropotoponyms, landscapes, climate, population historical geography

### **АНАЛИЗ ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ, НАЙДЕННОЙ В ПРОИЗВЕДЕНИЕ "БОБУРНОМА".**

**Аннотация.** В статье анализируется географическое положение, топонимы, леса, реки и другие природные объекты «Бобурномы». Также рассматриваются исторические события и то, как они освещаются автором, а также значение этой информации в изучении истории и культурного наследия. По результатам исследования призвано создать более широкое представление об историко-географических аспектах произведения и создать возможность дополнить его современными научными исследованиями.

**Ключевые слова:** персидские топонимы, топонимы, орогенные топонимы, гидротопонимы, антропотопонимы, ландшафты, климат, историческая география населения.

### **"BOBURNOMA" ASARIDA UCHRAYDIGAN TARIXIY GEOGRAFIK MA'LUMOTLAR TAHLILI**

**Annotatsiya.** Maqolada "Boburnoma"dagi geografik joylashuv, joy nomlari, o'rmonlar, daryolar va boshqa tabiat ob'ektlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy voqealar va ular muallif tomonidan qanday yoritilganligi, bu ma'lumotlarning tarix va madaniy merosni o'rganishdagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari orqali asarning tarixiy-geografik jihatlari haqida kengroq tasavvur hosil qilish va uni zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga qo'shish imkoniyatini yaratish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Fors toponimlari, toponimlari, orogen toponimlari, gidrotopenimlari, antropotopenimlari, landshaftlar, iqlim, aholi tarixiy geografiyası

**Kirish.** Amir Temurning uchinchi o‘g‘li Mironshoh Mirzo avlodi sanalgan Umarshayx Mirzoning to‘ng‘ich farzandi Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat XV asr oxiri – XVI asr boshlarida temuriylar sulolasida, balki Afg‘oniston va Hindiston tarixida muhim o‘rin tutgan shaxs sanaladi. Temuriyzoda Bobur Mirzo siyosiy shaxs sifatida Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyatda Dashti Qipchoq o‘zbeklarining siyosiy bosqiniga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatgan shaxs va Temuriylarning keyingi avlodlarini Hinditonda yirik imperiya barpo etishiga sababchi bo‘lgan yirik tarixiy shaxsdir. Shuningdek, Bobur XVI asr boshlaridagi Sharq mumtoz adabiyotining namoyondalaridan biridir. Uning qalamiga mansub yirik “Boburnoma” asari Sharq adabiyotshunosligi va tarixshunosligidagi yirik manbadir. Aksar manbalarda “Vaqoye” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan “Boburnoma” XVI asr boshlarida temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan Markaziy Osiyo va Hindiston yarimoroli tarixnavisligida muhim asardir. Ushbu avtobiografik asar birinchi navbatda, shaxsiy xotira bo‘lsa-da, muhim tarixiy va geografik manba bo‘lib xizmat qiladi. U davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini tasvirlovchi muhim manbalardan biridir.

**Adabiyotlar tahlili.** Bobur tomonidan yozilgan mazkur asar ko‘plab adabiyotshunos va tarixchi-manbashunoslар tomonidan o‘rganilib ushbu asar nafaqat badiiy qiymatga ega, balki unda tarix, manbashunoslikka oid ham ko‘plab ma’lumotlarni olish mumkinligini ta’kidlashadi. Jumladan, F.Ishoqov<sup>1</sup>, Sh.Asqarova<sup>2</sup>, A.Mirzayev<sup>3</sup>, A.Madraimov<sup>4</sup>, O.Bo‘riyev<sup>56</sup>, larning ilmiy tadqiqotlari alohida e’tiborga loyiqidir.

**Tahlil va natijalar.** Boburning ko‘rgan – kechirganlari va uning oldida sodir bo‘layotgan voqeа – jarayonlarni o‘rganish bizga XV asr oxiri va XVI asr boshidagi tarixiy geografik ma’lumotlarni olishga yordam beradi. Asarda Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning o‘sha vaqtidagi tarixiy geografik obyektlari va hududlarda yashovchi aholining tili, madaniyati va etnik xususiyati haqida ma’lumotlar berib o‘tilganligi bilan qimmatlidir.

<sup>1</sup> Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. Андижон: Andijon matbaa uyi, 2008. 9 б.;

<sup>2</sup> Asqarova.Sh. “Alpomish” va “Boburnoma”dagi onomastik birliklar tahlili masalasi // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va merosida tutgan o‘rnı mavzusidagi ilmiy konferensiya.Toshkent: 2023

<sup>3</sup> Mirzayev.A. Zahiriddin Muhammad Boburning tabiatshunoslikka oid qarashlari // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va merosida tutgan o‘rnı mavzusidagi ilmiy konferensiya. Toshkent: 2023. 114 b

<sup>4</sup> Madraimov A. Taqdir, tarix va tasvir (Boburning g‘aroyib taqdiri, tarixi va tasviri)// “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rnı” mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari mavzusidagi konferensiysi. Toshkent, 2023 yil B. 78-82.

<sup>5</sup> Bo‘riyev O. “Boburnoma”da Hirotning tarixiy-geografik tafsifi. )// “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rnı” mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari mavzusidagi konferensiysi. Toshkent, 2023 yil B. 361-366.

<sup>6</sup> Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. Тошкент, 2017. 361 бет.

Mazkur asarda tilga olingan hududlar va xalqlarning nomi va ularning kelib chiqish masalasini o‘rganish ham manbaning ilmiy qiymatini oshiradi. Manbashunos va toponimlar bilan shug‘ullanuvchi olimlar tomonidan “Boburnoma”dagi toponimlar va tarixiy geografik obyektlarni turli guruhlarga bo‘lib chiqishgan.

“Boburnoma”dagi toponimlarni toponimika va tarixiy geografiya bo ‘yicha ko‘plab tadqiqot olib borgan olimlar quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Orogen toponimlar : Ko‘hi Jud, Ko‘hi Mehtar, Ko‘hi Safid, Ko‘hi Sof va b.;

2. Gidrotoponimlar: Obi Istoda, Ko‘li Mag‘ok Sayxonligi, Ko‘li Magok O‘langi, Ko‘li Malik va b.;

3. Antropotoponimlar: Puli Mirzo, Puli Muhammad Chab va b<sup>7</sup>.

Ushbu joy nomlarini tadqiq qilish va ularni o‘rganishda nafaqat tarixiy geografik nuqtai nazardan, balki lingvistik nuqtai nazradan ham tahlil qilish asardagi tarixiy joylarni o‘rganishda katta yordam beradi Xususan, asarda izofali<sup>8</sup> toponimlarning ko‘p qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. Tadqiqotchi Sh. Asqarova “Boburnoma”dagi geografik obyektlarning asosiy qismi fors tilida yozilganligini ta’kidlab o‘tadi. Tadqiqotchi fors tilidagi izofiy birikmalardagi hokim qismdagi so‘zlar (ko‘h, pul, ob va h.k) ushbu joy nomlarini toponimlarning qaysi turkumga kirishini aniqlashtirish uchun kalit so‘z sifatida ishlatish mumkinligini ta’kidlagan<sup>9</sup>. Jumladan, ob, pushta, pul, taxt, shahar, rabot, tog‘, darvoza, dasht, bog‘, band, dara, shoh singari bir guruh leksemalar<sup>10</sup> toponimik birliklar tarkibida kalit so‘z maqomida bo‘ladi. Toponim kalit so‘zlar asarda 20 dan ziyod. Mazkur kalit so‘zlarning qo‘llanib kelishiga ko‘ra izofiy birliklarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: a) izofa ko‘rsatkichini saqlab qolgan toponimlar: Ko‘hi Safid, Bog‘i Vafo, Obi Istoda, Bog‘i Binafsha. b) izofa ko‘rsatkichini yo‘qotib qo‘shma so‘z shakliga kelib qolgan toponimlar: Qandibodom, Kobul, Yassi, Andijon va b. Asarda forscha-tojikcha izofalar tarkibida toponimlar uchraydi: sebi Samarqand, sohibi Samarqand, oluyi Buxoriy va kabi<sup>11</sup>. Ushbu berilgan nisbat mazkur shaharlardagi mevachilik tarmog‘i bilan bog‘liq. Zero, forschadan tarjima qilinganda sib (سیب) - olma , olu (ألو) – olxo ‘ri degan ma’noni bildiradi.

<sup>7</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома / П.Шамсиев, С.Мирзаев. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашириёти, 1960. 514 б.

<sup>8</sup> Izofa (arab. Qo‘shish orttirish) – arab, fors va ko‘p turkiy tillar grammatikasida aniqlanmish bilan aniqlovchi munosabati; urg‘usiz bog‘lovchi element orqali ifodalanadi. // [ЎзМЕ](#). Биринчи жилд “И” ҳарфи Тошкент, 2000 йил 85 б.

<sup>9</sup> Asqarova Sh. “Alpomish” va “Boburnoma”dagi onomastik birliklar tahlili masalasi // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va merosida tutgan o‘rni mavzusidagi ilmiy konferensiya. Toshkent: 2023. 554 b.

<sup>10</sup> Leksema ([yunoncha](#): lexis – [so‘z](#), ifoda) – til qurilishining leksik ma’no anglatuvchi lug‘aviy birligi. Leksema bildiradigan ma’no so‘zning material qismi: ma’lum tovush kompleksini ma’lum obyektiv voqelikka bog‘lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun. // [ЎзМЕ](#). Биринчи жилд “Л” ҳарфи Тошкент, 2000 йил.74 б.

<sup>11</sup> Asqarova.Sh. “Alpomish” va “Boburnoma”dagi onomastik birliklar tahlili masalasi // Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va merosida tutgan o‘rni mavzusidagi ilmiy konferensiya. Toshkent: 2023. 555 b.

Shuningdek, joy nomlaridagi forsiy yoki turkiy nomlardan tashqari hindcha nomlarni ham aniqlashda ham asarning lingvistik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Gang, Hind, Panjob nomlari hindcha ekanligi bilinib tursa, ayrim joy nomlaridagi asosda mavjud bo‘lgan qo‘s Shimchalar ham juda muhim o‘rin tutadi. Masalan shahar nomlaridagi – pur qo‘s Shimchasi bunga misol bo‘ladi. Asardagi Fathpur, Randpur, So‘gandpur kabi. Mazkur joy nomlarida keladigan, -pur qo‘s Shimchasing etimologiyasi asli sanskrit tilidan “Shahar” degan ma’noni anglatadi<sup>12</sup>, bu esa mazkur joy nomlarining aholi yashash punkti ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga -kut, -gur va -nagar qo‘s Shimchasi bilan kelgan joy nomlaridagi qo‘s Shimchalari ham ma’lum bir ma’nolarni anglatgan. Hind-oriy tillariga mansub sanskrit yozuvida bitilgan manbalar, “Rigveda” va “Mahobharata” asarlarida yirik shaharni “nagar” deb atashgan. Qadimgi qal’alarni “gur” deb nomlashgan. Dravid tilida esa qal’a va saroylarni, yirik ma’muriy markazlarni “kut” deb atashgan<sup>13</sup>. Bugungi kunda ham Kalitkut, Shirnagar, Randpur shaharlaridagi ushbu qo‘s Shimchalar aynan shu ma’noni anglatgan.

Tarixiy geografik jihatdan esa “Boburnoma” asarining yana bir muhim jihat, unda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tabiiy sharoiti, aholisi va aholisining xo‘jaligi haqida ham keng bayon etilganidadir. Masalan, Bobur o‘zi bo‘lgan Markaziy Osiyo shaharlar Samarqand, Axsi, Kesh, Termiz, Andijon, Qarshi va Toshkent haqida ma’lumotlar berib o‘tgan<sup>14</sup>. Boburnomaning yana bir yutuqlaridan biri shundaki, shaharlarning joylashuv o‘rnining topografik joylashuvi va koordinatasi ham keltirib o‘tilganligidadir. Masalan, Samarqand shahri va viloyati atrofining geografik o‘rnini mufassal bayon etgan. Samarqandning joylashuvini beshinchı iqlimga kiruvchi deb tasvirlaydi. Uning geografik koordinatasi ( $99^{\circ}$ ) ramzi nujumiyl  $56^{\circ}$  daraja va daqiqaga, arzi  $40^{\circ}$  daraja va daqiqaga to‘g‘ri kelishini yozib o‘tgan<sup>15</sup>. Bobur nafaqat ko‘rgan hududlarining tabiat haqida, balki hududlarda yashovchi aholi haqida ham to‘xtalib o‘tgan. Aholining xo‘jaligi, turmush tarzi va etnik xilma-xilliga haqida bayon etgan. Masalan, Bobur Mirzo Kobul aholisi va ularning milliy tarkibi haqida shunday deydi: “Kobul viloyatida xilma-xil qavmlar bor. Sayxonliklar va tekisliklarda turklar (o‘zbaklar), aymoq va sahroyi arablar; shahri va ba’zi kentlarida sort(tojik)lardir. Yana ba’zi kentlari va viloyatlarida pashoyi, paroji, tojik, baraki va afg‘onlar istiqomat qiladi. G‘azni tog‘larida hazora va nakdarilar yashaydi. Bularning orasida ayrimlari mo‘g‘ul tilida gaplashadi. O‘n bir-o‘n ikki tilda Kobul viloyatida so‘zlashadilar: arabi, forsiy, turkiy, mo‘g‘uliy, hindiy, afg‘oniy, pashoyi, parojiy,

<sup>12</sup> Blackie. C. A dictionary of place-names giving their dirivations. London: John Murrey, 1887. P 160.

<sup>13</sup> Dihrajhal S. *Studies in the Historical and Cultural Geography and Ethnography of Gujarat*. Pune: Deccan College. Retrieved 14 July 2023.

<sup>14</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома / П.Шамсиев , С.Мирзаев. Тошкент: Ўзбекистон сср Фанлар академияси нашриёти , 1960. Б 514.

<sup>15</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. С.Хасанов., О.Журабоев . Тошкент: Фан , 2019. 9 б.

gabriy, barakiy, lamg‘onyi. Bunchalik har xil qavmlar va boshqa-oshqa tillarda gaplashish boshqa hech bir viloyatda yo‘q”<sup>16</sup>. Shuningdek, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Farg‘onaning tog‘li tumanlaridagi ma’danlar xususida ham to‘xtalib o‘tgan. Bobur Farg‘ona vodiysi atrofidagi tog‘larda, ayniqsa, Yettikentda sochma holda feruza hamda temir konlari mavjudligi to‘g‘risida yozadi<sup>17</sup>. Bugungi kunda Farg‘onaning shimoliy hududlari va hozirgi Qирг‘истон hududlarida bezakbop tosh va magmatik jinslar<sup>18</sup> tarkibida temir rudasi aniqlanganligi<sup>19</sup> yuqoridagi hududlarning geologik tuzilishini Bobur tomonidan yaxshi tasvirlanganligini isbotlaydi.

Sheningdek, feruza konlari nafaqat Yettikentda, balki Farg‘ona vodiysida ham, jumladan vodiyning g‘arbiy qismida joylashgan Qurama tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlarida ham borligi aytib o‘tilgan<sup>20</sup>.

Bobur Mirzo Afg‘onistonning yer usti tuzilishi va yer osti boyliklari haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Xusan, “Boburnoma”da: “Qobul viloyatida 14 ta tuman bor. G‘urband tumanidagi tog‘larda kumush koni va lojuvard koni bo‘lur”, - deb yozadi<sup>21</sup>. Ma’lumki, bugungi Afg‘onistonning hududining markaziy, shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy hududlari, asosan, tog‘li hududlardan iborat. Tog‘ jinslarning magmatik qatlamlarida haqiqatan ham mis, kobalt, temir, barit, oltingugurt, qo‘rg‘oshin, kumush, rux, niobiy metallari aniqlangan<sup>22</sup>.

Shu bilan birga Bobur o‘zi bo‘lgan hudularda jaloyir, qo‘ng‘iroq, barlos urug‘lari haqida ham gapirib o‘tadi. Shuningdek, turkiy xalqlarni dashtda yashovchilarining ko‘philigini o‘zbaklar, Afg‘oniston hududida yashovchi tojiklarni sort deb ataganligini ham ko‘rishimiz mumkin<sup>23</sup>. Masalan, Adib sart so‘zini tojik eli ma’nosida qo’llagan. Marg‘ilon xususida gapirib, quyidagilarni yozadi: “Eli sort (tojukdir), mushti yuguruk va serjanjal el” sart so‘zi morfologik jihatidan ot vazifani bajarib kelmoqda. Muallif Kobul viloyatidagi xalqlarning tili to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, “sart” va “tojik” tilini eslamaydi va u arabiyl, forsiy, turkiy mo‘g‘uliy va boshqa tillarni eslaydi, xolos. Yana Bobur Marg‘ilon elini ham “sartlar” deb ataydi. Chamasi, marg‘ilonlik sartlar deyilganda ustachilik bilan shug‘ullanuvchi (o’troq hayot kechiruvchi) toifa

<sup>16</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (Тадбил)\В Раҳмоновю ,К Муллахўжаева Тошкент: “О‘qituvchi, 2008 . 24 б.

<sup>17</sup> Захириддин Мухаммад Бобир. Бобирнома / П.Шамсиев , С.Мирзаев. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти 1960. 63 б.

<sup>18</sup> Magmatik tog‘ jinslari - otqindi tog‘ jinslari// manba: [ЎзМЕ](#). Биринчи жилд “М” ҳарфи Тошкент, 2000 йил.18 б.

<sup>19</sup>Kyrgyz Republic – Mining// The International Trade Administration, U.S. Department of Commerce. <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/kyrgyz-republic-mining>

<sup>20</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома.\С Хасанов., О Журабоев. Тошкент: Фан,2019. 133 б .

<sup>21</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома .\С Хасанов., О Журабоев Тошкент: Фан, 2019. 14 б.

<sup>22</sup> Doud.A. Afghanistan’s Rare Earth Element Bonanza \\ <https://www.fraserinstitute.org/> 03.09.2024 .

<sup>23</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома (Тадбил)\В Раҳмоновю ,К Муллахўжаева Тошкент: “О‘qituvchi, 2008 . 24 б .

ko'zda tutilgan ko'rindi. Bundan anglashiladiki, sart atamasi o'sha chog'lar ham forsiy, ham turkiy tilli o'troq, shahar aholisiga nisbatan qo'llangan<sup>24</sup>.

Landshaft geografiyasi nuqtai nazaridan "Boburnoma"da Farg'onadan Hindistonga qadar bo'lgan hududlardagi tekislik va tog'larda, o'lkalarda o'sadigan daraxt, o'simlik, o't-o'lan, gullar haqida qimmatli ma'lumotlar ham keltiriladi<sup>25</sup>. Masalan, Farg'ona vodiysini chegaralab turuvchi tog'larida o'suvchi tobulg'i o'simligini ta'riflab Farg'onadan boshqa joyda uchramasligini ta'kidlab o'tgan<sup>26</sup>. Haqiqatan ham tobulg'i o'simligi Farg'ona vodiysi tog' yonbag'irlarida uchraydigan enedemik<sup>27</sup> o'simlik sanaladi.

O'simlik dunyosidan tashqari hayvonot dunyosiga nosbatan ham Mirzo Boburdan ko'plab ma'lumorlar yetib kelgan. Masalan, Andijonning ov qushlarining naslliligi, Axsida maral<sup>28</sup>, qirg'ovul, tovushqon<sup>29</sup>, Xo'jandda tovushqonlarning ko'p uchrashi, Hindistonda esa turfa qil qushlar, to'tilar, rang – barang jinsli qush turlari va xo'jalikda muhim bo'lgan hayvon fillar haqida ham bayon etgan<sup>30</sup>. O'rta Osiyoda yashovchi ovchi qushlardan keng tarqalgan tur sanalgan lochinlar bugungi kunda O'zbekiston va qo'shni hududlarning cho'lli, tekislik va tog'li, adirli mintaqlarida uchraydi. Muhofazaga olingen tur bo'lib ularning yashash hududlari XX asrning o'rtalarida yer maydonlarini kengaytirish hisobiga ularning yashash joylari qisqarib turning soni kamayishiga olib kelagan<sup>31</sup>. Maral bug'usi esa bugungi kunda aholi soni ko'payganligi sababli ham Farg'ona hududlarida yo'qolib ularning populatsiyasi Janubi-Sharqiy Sibir, Xitoyning bir qismi, Mo'g 'uliston, Qozog 'iston va Qirg 'izistonni qamrab oladi.<sup>32</sup>

Ushbu ma'lumotlar ham Zahiriddin Muhammad Boburdan XV asr oxiri XVI asr boshidagi tarixiy geografiya va tabiatshunoslik uchun nodir meros saqlanib qolganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlar "Boburnoma" asari XVI asr Sharq adabiyoti, ilm-fani va tarixnavisligiga salmoqli hissa qo'shgan asar ekanligini ko'rsatadi. Mazkur asarni o'rganish orqali XV asr oxiri va XVI asr boshidagi Markaziy Osiyo siyosiy

<sup>24</sup> Bozorova.A., G'afforova.Z., Yarashova.M. Bobur asarlaridagi sof turkiy so'zlarning leksik va morfologik xususiyati. <https://zenodo.org/records/11063879> . 06.09.2024.

<sup>25</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (Тадбил) | В.Раҳмоновю ,К.Муллаҳўжаева. Тошкент: "О'қитувчи", 2008 . 24 б.

<sup>26</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома | С.Хасанов., О.Журабоев. Тошкент: Фан, 2019. 9 б.

<sup>27</sup> Endemiklar, (yun. — mahalliy) — tarqalishi nisbatan kichik geografik hudud bilan cheklangan hayvonlar va o'simliklar oilalari, urug'lari, turlari yoki boshqa taksonlari.

<sup>28</sup> Maral – Tog'li hududda uchraydigan qizildan qo'ng'ir rangacha bo'lgan Osiyo qizil bug'usi \| manba: <https://www.merriam-webster.com/>

<sup>29</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома | П.Шамсиев. Тошкент: Юлдузча, 1989. 8 б.

<sup>30</sup> Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (Тадбил) | В.Раҳмоновю ,К.Муллаҳўжаева. Тошкент: "О'қитувчи", 2008 . 24 б.

<sup>31</sup> O'zbekiston Qizil Kitobi : II qism.Hayvonlar. Тошкент: Chinor,2019. 246 б.

<sup>32</sup> Охота на Марала <https://www.bookyourhunt.com/ru> 06.09.2024.

jarayonlarni o'rganishdan tashqari, mintaqaning tabiatini, aholisi va xo'jaligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

**Xulosa.** Xulosa sifatida asarda landshaftlar, shaharlar va mintaqaviy xususiyatlarni kuzatishlari Bobur davlatining tashkil topgan yillarida Mrkaziy Osiyo va Shimoliy Hindiston geografiyasi haqida batafsil ma'lumot berishini ta'kidlash mumkin. Boburning turli releflar, iqlim va shahar markazlarini sinchkovlik bilan tasvirlashi tarixiy geografik bilimlarga salmoqli hissa qo 'shib, o'sha davrning jismoniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini ko'rish imkonini beruvchi birlamchi manba hisoblanadi.

Shu bilan birga asar Boburning geografik tafsilotlarni hujjatlashtirishda qo'llagan metodologiyasi, jumladan, uning topografik xususiyatlar va aholi yashash joylariga e'tibori haqida so'z boradi. Shuningdek, u ushbu tavsiflarning tarixiy va geografik tadqiqotlarga ta'sirini o'rganadi, "Boburnoma" tarixiy landshaftlarni qayta tiklash va tushunish uchun qimmatli manba bo 'lib xizmat qiladi.